



BOTIR ZOKIROV IJODI YOSHLAR NIGOHIDAMI?

Ruzimurodova Marjona Shermurod qizi

feruza.tosheva.76@mail.ru

*O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
Vokal san'ati: estrada xonandaligi ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati
instituti Estrada xonandaligi kafedراسi professori **Islamova Ruslana Ruslanovna***

***Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbek estrada san'atining asoschisi Botir Zokirov ijodi bugungi yoshlar bilan qanchalik hamnafasligi, uning asarlaridagi she'riy va musiqiy tahlillarni professional tarzda ko'rib chiqish muhimligini yorituvchi manba bo'lib xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** Botir Zokirov, estrada, yoshlar, ijod, musiqa.*

***Аннотация:** Данная статья служит источником информации о том, насколько актуально творчество основателя узбекской эстрадной вокальной школы Батыра Закирова для современной молодежи, а также о важности профессионального анализа поэтического и музыкального аспектов его произведений.*

***Ключевые слова:** Батыр Закиров, эстрада, молодежь, творчество, музыка*

***Annotation:** this article serves as a source that illuminates how much the work of the founder of Uzbek pop art, Botir Zokirov, keeps pace with today's youth, and the importance of professionally considering poetic and musical analysis in his works.*

***Keywords:** Botir Zakirov, variety, youth, creativity, music.*

Botir Zokirov katta talant sohibi, yuksak ehtiros farzandi, XX asrning o'ta madaniyatli va ziyoli kishisi edi. Bu ulug' san'atkor hamisha halol, imonli,



haqiqatgo‘y bo‘lgan, har qanday sharoit va vaziyatda o‘z e‘tiqodiga, o‘z san‘atiga sodiq qolgan. Shunday ekan, uning hayot va ijod yo‘li ibratli, san‘at umri boqiydir.

A.ORIPOV

XX asrda barcha sohalar va soha vakillari o‘zgacha tus oldi. Butunlay yangicha qarashlar va yangicha go‘zalliklar atrofni qurshay boshladi. Inson qalb go‘zalligi ortdi. Madaniy did va estetika quvvati kuchaydi. Shu jumladan o‘zbek musiqa san‘atida o‘zgacha nafas paydo bo‘ldi va buni tom ma’noda katta bir voqelik deyish ham mumkin. O‘zbek musiqa san‘atida estrada va professional sahna san‘ati taraqqiy etdi. Bunday tarixiy voqelikda alohida o‘rin tutgan siymo bu — Botir Zokirovdir. U nafaqat xonanda, balki aktyor, rassom, shoir, sahna madaniyatini yangi bosqichga olib chiqqan buyuk ijodkor sifatida ham milliy madaniyat tariximizda muhim iz qoldirdi. Uning ijodi o‘z davrida katta shuhrat qozongan bo‘lsa-da, bugungi globallashuv va raqamli madaniyat sharoitida ulug‘ san‘atkorning beqiyos ijodi yosh avlod tomonidan qanday qabul qilinmoqda, Botir Zokirov ijodining badiiy-estetik xususiyatlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, sahna madaniyatiga qo‘shgan hissasi hamda bugungi yoshlar ongidagi aks-sadosi qay darajada degan savol tug‘iladi.

Uning ijodiy faoliyati 1950–1980-yillarni o‘z ichiga qamrab oladi, bu davrda san‘at mafkuraviy nazorat ostida bo‘lishiga qaramay, ijodkor milliy ohang va milliy ruhni saqlab qolishga intildi. O‘zining buyuk iste’dodi va ulug‘vor mehnati ila sharafla maqsadiga yeta oldi. O‘zbek estrada san‘atiga tamal toshini qo‘yib berdi. Sharq va G‘arb musiqiy an‘analarini uyg‘unlashtirdi. U o‘z repertuarida o‘zbek xalq qo‘shiqlari bilan bir qatorda jahon estrada namunalarini ham mahorat bilan ijro etdi. Bunday harakati bilan o‘z davrida hodisa yaratgan, abadiyatga yuz tutib tarixiy shaxsga aylandi.

San‘atkorni o‘z davrida zamondosh bo‘lgan muxlislari qadrlaydi, qo‘shiqlarini rohat qilib tinglaydi, ammo bugungi yosh avlod uning ma’naviy xazinasidan ne chog‘li foydalanayotganini tahlil qilish lozim deb o‘ylaymiz.



Zamonaviy estrada yoʻnalishida bugungi kunda minglab xonandalar “ijod” qilmoqda hamda mavsumiy, daromadtop va eng achinarlisi umri qisqa qoʻshiqlar urchib ketgani achchiq haqiqatdir! Aslida xalqning tarbiyasi va madaniy didini boyitishga xizmat qiladigan bu sohaning oʻzi badiiy estetikaga muhtoj boʻlib bormoqda. Shu asnoda Hazrat Alisher Navoiyning baytlarini yodga olish oʻrinli deb bilamiz:

Navosiz ulusning navobaxshi boʻl,

Navoiy yomon boʻlsa, sen yaxshi boʻl.

Yaʼnikim, el-ulus navosiz boʻlsa, uning ong-u shuuri maʼnaviy ozuqaga muhtoj boʻladigan boʻlsa, sen uning navobaxshi boʻl, xaloskori boʻl deya tarbiyaga chorlamoqda.

Afsuski, bugungi yosh avlod vakillari ichida oʻzlarini xonandaman deya eʼlon qilganlarning aksariyati ulusni tarbiya qila oladigan darajadagi qoʻshiqlar yarata olamayapti. Buyuk ijodlari bilan oʻzlariga haykal qoʻyib ketgan ustozlarning asarlaridan namunalar olmayapti. Shu sababli, bugun oʻspirin avlod nosogʻlom musiqa ohanglariyu, mazmunsiz sheʼr jumllarini tinglab katta boʻlmoqda.

Botir Zokirov repertuarida vatanparvarlik, pok muhabbat, insoniylik, goʻzallik va samimiyluk kabi mavzular ustuvor edi. Qoʻshiqlar mazmunan sayoz emas, balki badiiy jihatdan puxta tanlangan boʻlib, bu esa uning “Umid”, “Yor kel”, “Qaydasan”, “Sogʻindi jon”, “Raʼno”, “Gazli koʻxliklar”, “Oʻzbekiston” kabi vaqt sinovidan oʻtgan buyuk asarlari orqali oʻzbek sanʼatining oʻlmas xazinasini boʻlib qoldi.

Birgina omma uchun juda mashhur boʻlgan “Umid” asarini olaylik. Asar ham omma uchun goʻzal va nafis, ham soha vakillarining tahlili uchun ham professional darajada kishini qoyil qoldiradi. Ushbu asar ommani sehrlab, kundalik ravishda tinglab yuradigan qoʻshiqlardan biri deyish mubolagʻa boʻlmasa kerak.



Э.САЛИХОВ



Bu asarning musiqa muallifi O‘zbekiston san‘at arbobi, ulug‘ kompozitor Enmark Solihov bo‘lsa, so‘zlari esa, ulug‘ adib Asqad Muxtor qalamiga mansubdir.

She‘riyat va musiqa ohanglari mutanosib ravishda bir-birini topgan. She‘r ohanglari, oshiqning dardlariyu iltiroblari, musiqiy intonatsiyaga zid emas. Keng qalb va poyonsiz xayolot olamini qo‘shiq orqali namoyon etayotganga o‘xshaydi.

Kecha bog‘da oy shu‘lasi,
Tushmas edi yuzlarimga.
Barg aro boqqan o‘sha yulduz,
Qo‘nar ko‘zlarimga.
Negadir orziqadi desam, malak,
Kuz kelibdi yana.
Hamon shu kuz tonglari,
Visol onlari, eslarman, nigor.
Hamon dilda umid bor
Ko‘risharmiz balki yana kuz kelib,
Qumsayman kuz tonglarini
So‘lg‘in bog‘lar chiroyini
Kuz keldi gullar so‘ldi gul bog‘imda
Sen esa dil bog‘imda.



Mazkur kirish qismida qatlamli fakturani ko'rishimiz mumkin. Melodiya o'zining individualligi bilan ajralib turganligi uchun kirish qismini melodik mavzuiylik deb belgilashimiz mumkin.

Kirish qismining garmonik funksiyalari quyidagicha; **t 6 / II7 / VII7 / III7 / VI7 / II7 D43 / t⁶ / t⁶ / D43 / t / t / 3** ta sekvensiya medianta akkordlari orqali ko'rsatilgan. Sekvensiya xromatik asosdagi diatonik sekvensiya hisoblanadi va pog'onama-pog'ona pastlashib boradi. Bu yerda asosan romantik garmoniya qonuniyatlarini ko'rishimiz mumkin. Klassik musiqada uchta funksiya ishlatilgan bo'lsa (T, S, D) romantizm garmoniyasiga kelib **medianta**, kvarta va kvinta aloqalari bilan bir qatorda **sekunda va tersiya** aloqalari paydo bo'lgan. Aynan asarning ushbu qismida shunday qonuniyatlarni ko'rishimiz mumkin. Qisman klassik qonuniyatlar ham saqlanib qolgan. Qarangki, B. Zokirovning ovozi lirizm va dramatism uyg'unligi bilan ajralib turardi. U qo'shiq matnini shunchaki kuylamas, balki uni sahnaviy obrazga aylantirar edi. Har bir asarda ichki hissiy kechinmalarni yetkaza olishi uning kuchli qalb egasi ekanligidan dalolat edi.

Bugungi yoshlar asosan internet, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor kontent orqali musiqa iste'mol qilmoqda. Qisqa formatli, vizual effektlarga boy kliplar afsuski zamonaviy musiqaning asosiy ko'rinishiga aylangan. Bunday sharoitda Botir Zokirov ijodi dastlab "retro" yoki "klassika" sifatida qabul qilinadi. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida sifatli, ma'noli musiqaga qiziqib, uning kelajak taqdiriga befarq bo'lmagan kichik bir qatlami hamon uning ijodini hurmat qiladi va doimiy iste'mol qilib kelmoqda. Ayniqsa, ziyoli yosh avlod vakillari orasida milliy o'zlikni anglash g'oyasi ilgari surilganda albatta B.Zokirov kabi ijodkorlarning merosi qayta kashf etilmoqda.

Bugungi zamonaviy estrada vakillari bilan qiyoslaganda, Botir Zokirov ijodida:

- jonli ijro ustuvorligi;
- matn va musiqaning uyg'unligi;
- sahna intizomi va madaniyati yuqori darajada ekanligi ko'zga tashlanadi.



Globalashuv sharoitida milliy madaniyatni saqlash dolzarb masalalardan biridir. Botir Zokirov ijodi yoshlar uchun milliy estrada tarixini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. U milliy kuy va jahon musiqasini uyg'unlashtirgan holda o'zbek san'atining xalqaro maydondagi qiyofasini namoyish etgan.

Bugungi yoshlar orasida milliy musiqaga qiziqish ortib borayotganini inobatga olsak, B.Zokirov ijodi estetik tarbiya vositasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Botir Zokirov ijodini bugungi kunda qayta talqin qilish bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

1. Uning qo'shiqlarini yosh xonandalar tomonidan qayta ijro etish;
2. Televideniye va internet platformalarida eski konsert yozuvlarini namoyish etish;
3. Madaniy tadbirlarda uning xotirasiga bag'ishlangan kechalar tashkil etish.

Biroq, ba'zi hollarda qayta ijrolarda asarning asl ruhiyati yo'qolib qolishi mumkin. Shuning uchun merosni saqlashda ilmiy yondashuv, arxiv materiallarini asrash va professional talqin muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlar nigohida u avvalo klassik estrada vakili sifatida ko'riladi. Biroq chuqurroq tahlil shuni ko'rsatadiki, uning ijodi zamonaviy musiqiy jarayonlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, sifatli san'at namunasi yosh avlod uchun estetik mezon vazifasini bajarishi mumkin. Shunday ekan, Botir Zokirov merosini o'rganish, targ'ib qilish va ilmiy asosda tahlil etish nafaqat musiqashunoslik, balki yoshlar ma'naviy tarbiyasi nuqtai nazaridan ham muhimdir. Uning ijodi vaqt sinovidan o'tgan, bugungi avlod uchun ham ilhom manbai bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Salixov E. Jaz va vokal asarlar. - T.: 2005.
2. Jo'rayev A. Yurak bo'ronlari. - T.: 1989.
3. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. - T.: 2004.
4. To'rayev Yu. XX asr o'zbek estrada qo'shiqlari. - T.: 2015.



5. Vaxidov S. Uzbekskaya sovetskaya pesnya. - T.: 1976.
6. Vaxidov S. Estradnaya pesnya Uzbekskaya muzika na sovremennom etape. - T.: 1997.
7. Niyazova S.B., Islamova R. Estradnaya pesnya «Ra'no» v ispolnenii Batira Zakirova: vzglyad cherez prizmu muzikalnogo analiza //In the World of Science and Education. – 2025. – №. 15 Fevral Elb. – S. 85-86.